



HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA TIL UNDOSHLARINING FONOLOGIK TAVSIFI

Mirzavaliyeva Xonzodabegim Zoir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalish 1-bosqich talabasi

mirzavaliyevaxonzoda@gmail.com

Ilmiy rahbar: Shahnoza Muxtarova

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi til undoshlari fonologik jihatdan tahlil qilinadi. Til undoshlarining qanday hosil bo'lishi, bir biridan qanday farqlanishi va so'zlarda qanday vazifa bajarishi tushuntiriladi. Shuningdek, ularning boshqa tovushlar bilan qanday munosabatda bo'lishi va til tizimidagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: til undoshlari, oppozitsiya, fonetika, fonologiya, fonema

Abstract: This article analyzes the phonological features of consonants in the modern Uzbek literary language. It explains how consonants are formed, how they differ from each other, and what functions they perform in words. It also examines their relationship with other sounds and their place in the language system.

Keywords: consonants, opposition, phonetics, phonology, phoneme

Аннотация: В статье анализируются фонологические аспекты согласных звуков в современном узбекском литературном языке. В нем объясняется, как образуются согласные, чем они отличаются друг от друга и какую функцию играют в словах. Также изучается, как они взаимодействуют с другими звуками и их место в языковой системе.

Ключевые слова: согласные, оппозиция, фонетика, фонология, фонема

Kirish. Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida yosh grammatikachilar (mladogrammatiklar) maktabining fonetik qonunlariga javoban, nutq tovushlarining artikulyatsion fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funksional



(lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Garchi fonologiya termini ko'pchilik tilshunoslar tomonidan e'tirof etilsa-da, ammo bu termin ostida o'rganilishi lozim bo'lgan ob'ekt masalasida bir xillik kuzatilmadi. Tilshunoslarning juda ko'p qismi fonologiya termini ostida nutq tovushlarining funksional tomonini, ayrimlari, aksincha, a.rtikulyatsion-akustik tomonini tushunadilar. Har ikki holatda ham fonologiya fonetikaga qarama-karshi qo'yiladi. Xususan, F.de Sossyur shunday deydi: "Tovushlar fiziologiyasi ko'p hollarda fonetika deyiladi." Bu termin, bizningcha, nomuvofiq ko'rindi. Biz buni fonologiya termini bilan almashtiramiz, chunki fonetika azaldan tovushlar evolyutsiyasi haqidagi ta'limot bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaverishi kerak. Fonetika tarixiy fandir: u voqealarni, o'zgarishlarni tahlil etadi, zamonda harakat qiladi; fonologiya zamondan tashqaridir, chunki artikulyatsiya mexanizmi doimo o'ziga o'zi o'xshashligicha qolaveradi.

Jahon tilshunosligida fonologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida fonema va ularning farqlovchi belgilarini o'rganuvchi soha deb e'tirof etildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, fonologiya fonemalar haqidagi ta'limot sifatida yosh grammatikachilarning fonetikani ijtimoiy fanlar qatoriga emas, balki tabiiy fanlar qatoriga qo'shish konsepsiyasiga qarshi yuzaga keldi. Bunday sharoitda an'anaviy fonetikaga yangi yaratilgan fonologiyaning qarama-karshi qo'yilishi, so'zsiz, ijobiy hodisa bo'ldi. Ammo keyinchalik bir qator tilshunoslar, xususan, daniyalik tilshunos L.Yelmslev va boshqa strukturalizm vakillari asarlarida fonetikadan fonologiyani farqlash shu darajaga yetdiki, ular bir-biridan tamoman ajralgan (fonetika tabiiy fanlar, fonologiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradigan) ikki sohaga aylanib qoldi. Natijada fonologiyaning birligi bo'lgan fonema o'zining ob'ektiv reallikdagi material asosidan ajratib qo'yilgan.

O'zbek tili fonologiyasi ham tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. Fonologiya (fono... va ...logiya) — tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy (tuzilmaviy) va funksional (vazifaviy) qonunyatlarini, tilning eng mayda, ma'no bildirmaydigan birliklari — bo'g'inlar, fonemalarning tuzilishi va amalda qo'llanishini o'rganuvchi bo'limidir. Fonologiyaning fonetikadan farqi shundaki, uning diqqat markazida fizik hodisa sifatidagi tovushlarning o'zini emas, balki



ularning nutqda yanada murakkabroq ma'noli birliklar — morfemalar, so'zlarning tarkibiy qismi sifatida bajaradigan vazifasini o'rganish turadi. Shu tufayli fonologiyaning ba'zan funksional fonetika deb ham ataydilar. Rus-chex tilshunosi N. S. Trubeskoyning aniqlashicha, Fonologiya bilan fonetika o'rtasidagi o'zaro munosabat shundan iboratki, har qanday fonologik tavsifning ibtidosi ma'no farqlovchi tovushiy ziddiyatlarni aniqlashdir; fonetik tavsif esa boshlang'ich nuqta va moddiy asos sifatida qabul qilinadi. Fonologiyaning asosiy birligi — fonema, asosiy tadqiqot ob'yekti — fonemalarning zidlanishlari (oppozisiyalari) bo'lib, bu oppozisiyalar bir butun holda tilning fonologik tizimini hosil qiladi. Undan tashqari, hozirgi o'zbek adabiy tilida til undoshlari ham alohida fonologik birlik sifatida ajralib turadi. Til undoshlari — talaffuz jarayonida til ishtirokida hosil qilinadigan undosh tovushlar hisoblanadi. Ular til orqa, til o'rta yoki til oldi bilan og'iz bo'shlig'inining turli nuqtalarida hosil bo'ladigan tovushlardir. O'zbek tilida quyidagi til undoshlari mavjud:

Til undoshlari: t-d, s-z, ch-dj, sh-j, k-g, x-g, q, n, r, y, ng, l;

Va, ular og'iz bo'shlig'inining turli nuqtalarida hosil bo'lishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- a) til oldi undoshlari: t-d, s-z, ch-dj, sh-j, r-n;
- b) til o'rta undoshi: y;
- c) til orqa undoshlari: k-g, ng;
- d) chuqur til orqa undoshlari: q, x, g;
- e) tilning yonida paydo bo'ladigan undosh: l.

Fonemalarning asosiy, korrelyativ belgilari farqlovchi belgilar sanaladi. Masalan, p fonemasining jarangsizlik, b fonemasining jaranglilik belgilari shu fonemalarning farqlovchi belgilaridir. Chunki mazkur fonemalarning boshqa barcha belgilari umumiy.

Endi undoshlarning fonologik tavsifiga to'xtalsak. Fonologik tavsif — bu tilning tovush tizimlarini, ya'ni fonemalar va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganadigan ta'rifdir. U tilning fonologik birliklarini, ularning kombinatsiyalanish qoidalarini, urg'u, intonatsiya va fonetik o'zgarishlarni tavsiflaydi. Bunda fonologik oppozisiyalar muhim hisoblanadi. Fonologik oppozitsiya ikki fonemaning bitta



farqlanish belgisi asosida o‘zaro zidlanish hosil qilishidir. Masalan, „p“ (jarangsiz) va „b“ (jarangli) undoshlari jarangsiz-jarangli belgisi asosida bir oppozitsiyaga birlashadi: p-b kabi. Bu ikki fonemaning boshqa belgilari farqlanmaydi: p (lab-lab) – b (lab-lab), p (portlovchi) – b (portlovchi) kabi. Demak, undosh fonemalarga xos bo‘lgan uchta fonologik belgilar – artikulatsiya o‘rni, artikulatsiya usuli va jarangsizlik-jaranglilik belgilaridan faqat bittasi (so‘nggisi) p-b oppozitsiyasiga asos bo‘lgan. Shuning uchun u "birlik oppozitsiya" sanaladi. Quyidagi misol orqali til undoshlar oppozitsiyasini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda til oldi-til orqa undoshlari oppozitsiyalari berilgan: (t-k) + (t-q) + (d-g) + (s-x) + (z-g‘) + (n- ng).

Xulosa. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi til undoshlari fonologik tizimning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi va ular tilning tovush tizimini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Til undoshlari o‘zaro farqlanib, ma’no hosil qilishda qatnashadi va turli fonetik jarayonlarga uchraydi. Shu bilan birga, ular tilning fonologik strukturasi va uning ifodasini barqarorlashtiradi yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

- 1.H.R.Zokirova. "O‘ZBEK TILI MORFONOLOGIYASI" / O‘quv-uslubiy qo’llanma. Andijon–2016.
2. Hasanboy Jamolxonov. "HOZIRGI O’ZBEK ADABIY TILI". Darslik. Toshkent–2013
- 3.https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20F%20harfi.pdf
- 4.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fonologik_oppozitsiya
- 5.<https://uz.m.wikipedia.org/w/index.php?title=Fonologiya&wprov=rarw1>